



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

No 2/2025

**Qo‘qon DPI.
Ilmiy xabarlar**



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№2/2025

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72а5 К 99</p>	<p>Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboev Nashr uchun mas‘ul: M.Z.Muydinov</p>
<p>MUASSIS: Qo‘qon davlat pedagogika instituti</p> <p>Qo‘qon DPI. ИЛМИЙ ХАВАРЛАР-НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.</p> <p>"Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025</p>	<p>TABIYIY FANLAR</p> <p>I.I.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (PФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) A.Ж.Хусанов-физика-математика fanlari nomzodi, docent (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p>FILOLOGIYA FANLAR</p> <p>Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (PФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (PФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (PФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (PФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p>IJTIMOIY FANLAR</p> <p>Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (PФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (PФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p>PEDAGOGIKA FANLAR</p> <p>P.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (PФ) H.H.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (PФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (PФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>



ERGONIMLARNING TARKIBIY TUZILISHIGA DOIR
(Qarshi shahar ergonimlari misolida)

Usmonova Umida Abdukarimovna
Qarshi davlat texnika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ergonimning tuzilishi va aniq lingvistik materialga nisbatan "ergonim" atamasining qo‘llanish xususiyatlari Qarshi shahar materiallari asosida tahlil qilinadi. Shunga muvofiq ergonimni keng va tor ma'noda tushunish zarurligi asoslanadi. Shuningdek, ergonimlar strukturaviy komponentlarining funktsiyalari aniqlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: ergonim, ergonimika, funksional, nominativ, onomastik komponent, klassifikator.

Annotation. The article analyzes the structure of ergonyms and the specifics of using the term "ergonym" in relation to specific language material based on materials from the city of Karshi. Accordingly, the need to understand the ergonym in a broad and narrow sense is substantiated. The functions of the structural components of ergonyms are also defined.

Keywords: ergonym, ergonomics, functional, nominative, onomastic component, classifier.

Muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, korxonalar, muassasalarni belgilash uchun ilmiy adabiyotlarda turli atamalar qo‘llaniladi: “tijorat korxonasi nomi” [10], “ergourbonim” [3], “reklama nomi” [5, “eportonomim” [9], “firmonim”, “ergourbanonim” [8]. Bunday obyektlar uchun an’anaviy, umumlashtirilgan va shuning uchun eng ko‘p ishlatiladigan terminologik belgi "ergonim" leksemasi hisoblanadi. N.V. Podolskaya "Rus onomastik terminologiyasi lug‘ati"da ergonimni "odamlar birlashmasi, shu jumladan uyushma, tashkilot, muassasa, korporatsiya, korxonalar, jamiyat, muassasa, tugaraklarning atoqli oti" sifatida izohlaydi [6, 166]. Zamonaviy ergonimning denotati topografik obyekt (kafe, do‘kon, zavod, dorixona va boshqalar) va yuridik shaxs (jamiyat, uyushma, kooperativ, fond va boshqalar) [8, 243].

Ergonimlar mulkchilik shakli va faoliyat turi bilan farq qiluvchi tashkilotlar nomini ifodalaydi. Ergonimlarning umumiylik ro‘yxatga olingan yoki zarurat tug‘ilganda huquqiy hujjatlarda qayd etilishi mumkin bo‘lgan rasmiy nomlardir. Ergonimlar manzil ma'lumotnomalarida ko‘rsatiladi va tegishli xo‘jalik birlashmalarining vakillari sifatida maxsus

ma'lumot tuzilmalarida (belgilarida) aks etadi. Masalan, Qarshi shahar ergonomik materiallariga nazar tashlasak, ular quyidagi tuzilish xususiyatiga egaligini korish mumkin:

1. Xizmat ko‘rsatish korxonalari: a) do‘konlar: “Samira”, “Sulton M”, Sarbat Market Davron, Супермаркет “X5”, Sitora Jasmin oziq-ovqat va b.; b) umumiy ovqatlanish korxonalari: restoranlar: “Abdulkarim Restaurant”, “Uch do‘st” restorani, Ko‘zmunchoq Burger restoran; choyxonalar: Parda Bobo choyxonasi, Xonsaroy choyxonasi, Maxmud Kamoliddin choyxonasi, Munavvar osh markazi; to‘yxona nomlari: “Mo‘jiza” to‘yxonasi, “Hafizaxon” to‘yxonasi, “Zebuzar” to‘yxonasi; kafe nomlari: “Leben” kafe, “Sakura Sushi”, “Aroma Bakery Cafe”, “il Cappuccino” kofeynya; v) maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari: “Ko‘zmunchoq” tikuvchilik sexi, “Zolushka” go‘zallik saloni, “Istanbul” pardalar saloni va b.; d) nomashiy xizmat ko‘rsatish korxonalari: Investitsion konsalting (yuridik xizmatlar), Monolit Estate (ko‘chmas mulk agentligi); e) turizm va mehmonxona xizmati korxonalari: Sputnik (tur kompaniyasi), Smile (hostel), “Sultan” Hotel, “Hotel Nasaf Travel” va boshqalar.

2. Madaniyat va dam olish sohasi muassasalari: Qashqadaryo viloyati qo‘g‘rchoq teatri, M.Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqiy drama teatri, “Cinema. uz” kinoteatr, “Sohil bo‘yi” sanatoriyasi, “Geolog” sanatoriyasi va boshqalar.

3. Sog‘liqni saqlash va sport muassasalari: Magic White (tishlarni oqartirish), “Nevromed” Nevrologiya tibbiyot markazi, “Nasafmed” medsentrlar, Respublika kardialogiya markazi, Respublika ekstren meditsina ilmiy markazi, Viloyat stomatologiya klinikasi, “Boom” fitnes klub, “Kachmen” trenajyor zali va boshqalar.

4. Ta‘lim muassasalari: Qarshi davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Axborot texnologiyalari va menjment universiteti, "Iqtisodiyot va pedagogika universiteti" nodavlat ta'lim muassasasi, Qarshi ixtisoslashgan olimpiya zahiralar internat maktabi, 1-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi va boshqalar.

5. Davlat tashkilotlari nomlari: Qashqadaryo viloyati iqtisodiyi sudi, Qashqadaryo viloyati kadastr boshqarmasi, O‘zbekiston davlat bojxona qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi, Qashqadaryo viloyati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi, Qarshi shahr davlat soliq inspeksiyasisi va boshqalar.

Qarshi shahar ergonomik materiallarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, belgilarda ergonomiklarni grafik tasvirlash zamonaviy kirill va lotin alifbosida ifodalangan . Bu holat nominatorlarning xohish-irodasiga ko‘ra, birinchi navbatda, potentsial mijozlarning e‘tiborini jalb qilish uchun ishlatiladi.

Axborot tuzilmalarining mazmunini uzatish vositalarining xilma-xilligi, belgilarda joylashtirilgan ma'lumotlarning miqdori zamonaviy shaharlarning vizual grafik ko‘rinishiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ma'lum bir tashkilotning belgisi/axborot tuzilmasi matni muassasaning bevosita nomini ham aks ettirishi mumkin. Jumladan, Avtomir, Tarix muzeyi, Go‘sh, Non nomi boshqa so‘zlar bilan birga keladi. Masalan: Verona interyer dizayni, Mebel studiyasi; Mig kredit, Har qanday maqsad uchun tezkor kreditlar. Boshqacha qilib aytganda,

muassasa yoki tashkilot belgisida ko‘rsatilgan har bir yozuv ergonim hisoblanmasligi mumkin. Shu munosabat bilan ergonimning tarkibiy tuzilishi o‘rganish masalasi dolzarbdir.

Ergonim sohasida qilingan tadqiqotlarda ular tuzilishiga ko‘ra quyidagi uchta komponentdan tashkil topadi degan tushuncha mavjud.

1) muassasaning tashkiliy-huquqiy shaklini ko‘rsatadigan so‘zlar sifatida kompaniya, XK (xususiy korxonasi), MCHJ(mas‘uliyati cheklangan jamiyat), NTM (nodavlat ta‘lim muassasasi), OK (oilaviy korxonasi), XUJMSH (Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati, DUK (davlat unitar korxonasi), UK (unitar korxonasi), AJ (aksionerlik jamiyati), Qo‘shma korxonasi, AB (advokatlik byurosi), FX (fermer xo‘jaligi) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

2) muassasa faoliyatini nomlovchi so‘zlar (dori-xona, rieltorlik agentligi, bank, do‘kon, restoran, go‘zallik saloni va b.);

3) haqiqiy onomastik komponent - tashkilotlarning nomlari (masalan, “Ko‘zmunchoq”, “Marjon”, “Khilol tex”, “Yulduz” va b.).

M. Saparniyozovanning ta‘kidlashicha, ergonimlar faqat nomlovchi – onomastik qismdangina iborat birliklar emas, ularga tashkilot turi, huquqiy maqomi kabilar bilan birgalikda yaxlit birlik sifatida qarash lozim. Ergonimlarning tarkibiy qismlari tashkilot tipini ko‘rsatuvchi qism + nomdan tashkil topadi. Bundan ko‘rinadiki, ergonimlarning tarkibiy qismi tashkilot yoki korxonaning faoliyat turi, tashkiliy-huquqiy maqomi, ya‘ni onomastik klassifikator, uni boshqa shu kabi uyushmalardan farqlovchi xususiy onomastik komponent (nom)dan tuziladi. Masalan: “Huvaydo” mebellar uyi ergonimi Huvaydo - xususiy onomastik komponent (nom); mebellar uyi - onomastik klassifikator; kompaniyasi – uning statusi, huquqiy maqomini ko‘rsatadi [7,16].

A.M. Emelyanova ergonimni uchta komponentdan bittaga, ya‘ni tashkilot yoki muassasaning bevosita nomiga qisqartirish lozimligi to‘g‘risidagi qarama-qarshi fikrni ilgari suradi: "Ergonimlar faqat turli xil funktsional profildagi korxonalarining tegishli nomlari sifatida tushuniladi: odamlarning biznes birlashmasi (ilmiy, ta'lim, ishlab chiqarish muassasasi), tijorat korxonasi (agentlik, bank, do‘kon, kompaniya), madaniy obyekt (kinoteatr, klub, ko‘ngilochar muassasa, teatr, bog‘), sport inshooti (majmua, stadion)" [2, 5].

V.A. Kryjanovskaya ergonimning tuzilishi masalasida oraliq pozitsiyani egallaydi, ya‘ni u ergonimlarning majburiy tarkibiy qismlarini tashkilotlarning haqiqiy nomlari yoki nominativlari va tashkilot faoliyatining xususiyatini ko‘rsatadigan qo‘shimcha so‘zlar deb hisoblaydi; ixtiyoriy - shiorlar, imzolar, ya‘ni potentsial tashrif buyuruvchilarni qiziqtiradigan qo‘shimcha ma'lumotlar [4, 34]. Ko‘pgina tilshunoslarning fikricha, "korxonasi nomining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiruvchi majburiy qismi ergonimning bir qismi emas" [4,30]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, Qarshi shahar nodavlat qo‘shimcha ta‘lim "Yulduzcha" bolalar musiqa va xor maktabi nomida "Yulduzcha" bolalar musiqa va xor maktabi" ergonim hisoblanadi, “Yulduzcha” esa atoqli ot, nominativdir.

Ammo, V.A. Kryjanovskaya ko‘pincha "ergonim" atamasini faqat nominativga nisbatan qo‘llaydi. Uning fikricha, yaqin vaqtgacha ergonimning o‘zi qo‘llanilgan, uning tarkibida

qo‘shimcha komponentlar ishtirok etmagan yoki bir xil turda (парикмахерская - sartaroshxona, столовая - oshxona, аптека - dorixona va boshqalar) va ba'zan shularning o‘zi nom sifatida qo‘llanilgan (Bufet, Kafe, Magazin va boshqalar)" [4,33]. "ZoLoTo Myag-koff, *Адам & Ева*" [4,77], "xorijiy harflarni qisman olish, masalan, *Эгоизм, Сказка*" va boshqalar kabi ergonimlarning turlari yaratilmoqda [4, 145].

Ergonimlarning shakllanishi va kelib chiqish usullarini o‘rganishda mazkur atama, qoida tariqasida, faqat tashkilotlarning bevosita nomlariga nisbatan qo‘llaniladi [1].

Shuni ta'kidlash kerakki, nutqda ma'lum bir tashkilot nomidan foydalanganda, har doim ham nominativ, ya'ni tashkilotning atoqli otini qo‘shimcha komponentsiz qo‘llash to‘g‘ri bo‘lalavermaydi, mazkur komponent ergonim tuzilishida funksional xarakterga ega bo‘ladi, deb hisoblash mumkin. Avvalo, biz qo‘shimcha komponentning nomdan ajralishi qo‘shma so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida bo‘lgan nomning shakl va mazmuniy tuzilishining buzilishiga olib keladigan holatlarni nazarda tutamiz. Masalan, "Sanoatqurilishbank", "Qarshi 1-sonli sut zavodi", "Qarshi qandolat fabrikasi" ergonimlarini qo‘shimcha komponentsiz yoki funktsionalliksiz foydalanish qiyin. Masalan, bank "Sanoatqurilish" yoki "Sanoatqurilish" (bank) nominatsiyalari amalda qo‘llanilmaydi. Ergonimni belgilash uchun nafaqat yuqorida ko‘rsatilgan funktsional inversiya usullarini qo‘llash, uni o‘rnatilgan konstruktsiya sifatida ko‘rsatish, balki og‘zaki va yozma nutqda uning ellipsisini ham qo‘llash mumkin, buning natijasida "Marjon", "Marka", "Korzinka" shaklidagi ergonimlar yuzaga keladi. Ko‘pgina qo‘shimcha komponentlar (muzey, maktab, universitet, kollej, klinika, kasalxona va boshqalar)ni tegishli muassasalarning nomlaridan chiqarib tashlab bo‘lmaydi, chunki ular nominativ elementni ifodalaydi (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi musiqa maktabi, Viloyat stomatologiya poliklinikasi va b.).

Shuni ham hisobga olish kerakki, zamonaviy tashkilotlar, ayniqsa, tijorat tashkilotlari boshqa shunga o‘xshash obyektlardan ajralib turish uchun nom tanlashda va o‘z korxonasi faoliyatini ko‘rsatishda ijodiy yondashishlari mumkin. Masalan, oddiy kafelar o‘zlarini "antikafe", "avtokafe", "artkafe", "kotokafe" sifatida ko‘rsatadigan muassasalar bilan taqqoslanadi. Odatiy go‘zallik salonlaridan tashqari, "go‘zallik klubi", "go‘zallik ustaxonasi", "go‘zallik markazi" kabi ifodalar ham qo‘llaniladi. Yorqin va jozibali nomlar yordamida tashkilot egalari – nominatorlar jamiyatga o‘zlarining ijtimoiy va madaniy afzalliklarini - ta'lim darajasi, qiziqishlari, axloqiy fazilatlarini, didi va boshqalarni namoyish etadilar. Yangi turdagi tashkilotlar, xizmat ko‘rsatish muassasalarining paydo bo‘lishi bilan notanish yoki yangi kirib kelgan qo‘shimcha komponentlar nomlanish nuqtayi nazaridan nomning o‘zidan kam ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Ularning asosiy maqsadi - faoliyat turini ko‘rsatishi haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Ergonim komponentlarining teng ahamiyatlilikini ularning axborot tuzilmasida bir xil ko‘rinishda ifodalanishi bilan ham asoslash mumkin. Ular komponentlar hajmi, shakli, shrifti, rangi va boshqalar bo‘yicha bir xil bo‘ladi. Shu munosabat bilan, nazarimizda, ergonimlarni tor va keng ma'no doirasida farqlash zarurati tug‘iladi.

Ergonim keng ma'noda "funktional yoki qo‘shimcha component+ nominativ" (O‘zbekiston Milliy banki, Qarshi shahar kasalxonasi) tuzilishiga egaligi bilan xarakterlanadi. Faoliyat turi uchun tipik bo‘lmagan nomga ega bo‘lgan tashkilotni ko‘rsatish uchun ushbu strukturali ergonimdan foydalanish afzalroqdir. Keng ma'nodagi ergonimlar asosida funksional ellipsis orqali tor ma'nodagi ergonimlar ("Milliy bank", "Issiq non", "Mo‘jiza") hosil bo‘ladi. Tor ma'noda ergonim nominativ bo‘lib, u an'anaviy ravishda ajralmas qism sifatida funksional bo‘lgan so‘zni o‘z ichiga oladi ("Qarshi choyxonasi", "Moliyaviy xavfsizlik maktabi", "Davlat dorixonasi") yoki shaklga ko‘ra funksional so‘zga mos keladi ("Bufet", "Oshxona").

Demak, ergonim tarkibida uning majburiy qismlari sifatida nominativ va funksional komponentlarni farqlash va ergonimlarning keng va tor ma'noda qo‘llanishi mumkinligi haqida gapirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ergonim tor ma'noda - tashkilotning asosiy nomi, nutqda ellipssiz komponent hisoblangan funkcionallikni o‘z ichiga oladigan nominativ. Keng ma'noda ergonim - bu ellips komponenti bo‘lgan funksional bilan birga kelgan nominativ.

ADABIYOTLAR:

1. Бутакова Е.С. Лингвистическая креативность в томской эргонимии // Вестник ТГПУ. 2013. № 3 (131). С. 146–152.

2. Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Уфа, 2007. 23 с.

3. Козлов Р.И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики: Автореф. дис. ... канд. фи-лол. наук. Екатеринбург, 2000. 23 с.

4. Крыжановская В.А. Эргонимы с элементами графической трансформации: структурно-семантический и прагматический аспекты. Дис. ...канд. филол. наук / Кубанский государственный университет. Краснодар, 2017. 241 с.

5. Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентности: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Волгоград, 2004. 43 с.

6. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1978. 198 с.

7. Saparniyozova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Fil.fan. dokt. diss.. avtoreferati. -Toshkent, 2023. -77 b.

8. Тихоненко Е.В. Лингвистический статус эргоурбанонима // Ономастика Поволжья: Материалы XVI Междунар. науч. конф., Ульяновск, 20–23 сен-тября 2017 г. Т. 2. С. 241–248.

9. Шмелева Т.В. Ономастика: Учеб. пособие. Славянск-на-Кубани: Изд. центр филиала ФГБОУ ВПО «КубГУ», 2013. 161 с.

10. Яловец-Коновалова Д.А. Названия коммерческих предприятий: Ономасиологическая классификация и функционирование в современном русском языке: Дис. ... канд. филол. наук. Челябинск, 1997. 177 с.

BADIIY MATNLAR VOSITASIDA VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINI SHAKILLANTIRISH <i>Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna</i>	1039
O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA BAXSHILIK SAN’ATI VA DOSTONCHILIK MAKTABLARI <i>G‘ulomova Begoyim Bektosh qizi</i>	1045
ОСОБЕННОСТИ ОТРАЖЕНИЯ «КОГНИТИВНЫХ» ДЕЙСТВИЙ В СОСТАВЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ <i>Бердамбетова Айгул Парахатовна</i>	1051
AGROMATNLARDA KO‘RSATISH MAYDONI VA KO‘RSATISH HODISASINING LINGVISTIK TAHLILI <i>Bozorova Munisa Mamadiyor qizi</i>	1057
CRIME TUSHUNCHASINING CRIME, OFFENSE ATAMALARI VA ULARNING HOSILALARI BILAN IFODALANISHI <i>Suvonkulova Dilnoza Kamilovna</i>	1063
CRITICAL THINKING IN WRITING. <i>Mirzaraimova Madina Begmatovna</i>	1068
DIAXRON KORPUS VA UNING ARXITEKTURASI <i>Zilola Xusainova Yuldash qizi, Yangibayeva Surayyo Gulimboy qizi</i>	1072
PRAGMATIKA BORASIDAGI NAZARIY QARASHLAR <i>Yusupova Sabohat A‘zamjonovna, Turdiboyeva Xojiyaxon Bahodirjon qizi</i>	1080
“AJINASI BOR YO‘LLAR” ASARIDA DAVR VA QAHRAMON TIMSOLI <i>Muxtoraliev Baxromjon</i>	1085
ERGONIMLARNING TARKIBIY TUZILISHIGA DOIR (Qarshi shahar ergonimlari misolida) <i>Usmonova Umida Abdulkarimovna</i>	1090
BADIIY TASVIRIY VOSITALAR VA ULARNING NUTQDAGI AHAMIYATI <i>Erkinova Marxobo G‘ayrat qizi</i>	1095
UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘QITISHNING HOZIRGI HOLATI <i>Abdurahmonova Sharofat Baxromali qizi</i>	1100
BADIIY MATNLARDA SO‘Z O‘YININI STILISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALASH <i>Saidova Iroda Anvar qizi</i>	1104
THE FUTURE OF PARADIGMS IN LINGUISTICS: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES IN A GLOBALIZED WORLD <i>Ziyayeva Dilnoza Anvarovna</i>	1111
INGLIZ BADIIY ASARLARIDA ARGO VA JARGONLARNI QO‘LLANISH JIHLTLARI <i>Saidova Nilufar Anvar qizi</i>	1117
THE SCOPOS THEORY AND ITS IMPORTANCE IN TRANSLATION <i>Sharipova Fazilat Dilmurod qizi</i>	1123
LANGUAGE AS NATIONAL CULTURAL IDENTITY: A REFLECTION OF HISTORY, VALUES, AND GLOBALIZATION <i>Kholova Madina Boboqulovna</i>	1132
PARADIGMA VA SINTAGMA: MOLIYAVIY MATNLAR TARJIMASINING LINGVISTIK ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI TEXTS <i>Abdullayeva Shohida Norqulovna</i>	1136